https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Vasila Hamrayeva**
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: vasilahamrayeva64@gmail.com
(+998950270112)

# O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIDA SOTSIOMADANIY MUHITNING O‘RNI

**Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishida sotsiomadaniy muhitning ta’sirini sotsiologik tadqiqotlar asosida tahlil qiladi. Tadqiqot 2025-yil oktabr-noyabr oylarida O‘zbekistonning turli hududlaridan 17-50 yoshdagi 266 nafar respondent ishtirokida o‘tkazildi. So‘rovnoma va intervyu natijalari jamiyat qadriyatlari, fuqarolik faolligi, ijtimoiy hamjihatlik, ma’naviy qadriyatlar va mas’uliyat darajasi ijtimoiy tadbirkorlikning shakllanishiga va rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqot shuni aniqladiki, sotsiomadaniy muhitning sifatli rivojlanishi ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni va keng jamoatchilikni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni kengaytirish va unga jamoatchilik ishtirokini oshirish uchun ilmiy va amaliy hissa qo‘shadi. Tadqiqotda jami 25 ta savoldan iborat so‘rovnoma ishlatilgan bo‘lib, maqolada uning ichidan ijtimoiy tadbirkorlik va sotsiomadaniy muhit bilan eng yaqin aloqaga ega bo‘lgan 6 ta asosiy savolning natijalari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv tadqiqotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va natijalarni ilmiy jihatdan izchil tarzda taqdim etishga imkon beradi.

**Kalit so‘zlar**

Ijtimoiy tadbirkorlik, sotsiomadaniy muhit, jamiyat, fuqarolik faolligi, so‘rovnoma, qadriyatlar, qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish, qonunchilik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

# РОЛЬ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация**

Данная статья анализирует влияние социокультурной среды на развитие социального предпринимательства в Узбекистане на основе социологических исследований. Исследование проводилось в октябре-ноябре 2025 года среди 266 респондентов в возрасте от 17 до 50 лет из различных регионов страны. Результаты опросов и интервью показали, как общественные ценности, гражданская активность, социальная сплочённость, моральные ценности и уровень ответственности влияют на формирование и развитие социального предпринимательства. Исследование выявило, что качественное развитие социокультурной среды является важным фактором поддержки социальных инициатив и вовлечения молодежи и широкой общественности в предпринимательскую деятельность. Кроме того, исследование вносит научный и практический вклад в расширение социального предпринимательства в Узбекистане и повышение участия общества в этом процессе. В исследовании использовалась анкета из 25 вопросов, из которых в статье проанализированы результаты 6 ключевых, наиболее связанных с социальным предпринимательством и социокультурной средой, что позволяет выявить основные тенденции и представить результаты системно.

**Ключевые слова**

Социальное предпринимательство, социокультурная среда, общество, гражданская активность, опрос, ценности, поддержка, финансирование, законодательство

# THE ROLE OF THE SOCIOMADANIY ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

**Abstract**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

This article analyzes the impact of the sociocultural environment on the development of social entrepreneurship in Uzbekistan based on sociological research. The study was conducted in October-November 2025 with 266 respondents aged 17-50 from various regions of the country. Survey and interview results demonstrated how societal values, civic engagement, social cohesion, moral values, and responsibility influence the formation and development of social entrepreneurship. The study found that the qualitative development of the sociocultural environment is a key factor in supporting social initiatives and engaging youth and the broader community in entrepreneurial activities. Additionally, the research provides scientific and practical contributions to expanding social entrepreneurship in Uzbekistan and increasing public participation. The study used a 25-question survey, and this article analyzes 6 key questions most closely related to social entrepreneurship and the sociocultural environment, allowing identification of major trends and systematic presentation of the results.

**KIRISH.**

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy muammolarni hal etishda an’anaviy iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion mexanizmlarga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat manfaatlarini iqtisodiy faoliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi samarali model sifatida shakllanmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik - bu ijtimoiy muammolarning innovatsion yechimini olib borish jarayoni[1]. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi Pokistonlik Aksher Hamid Xon va Bangladeshlik Muhammad Yunus kabi atoqli innovatorlar nomi bilan aloqador. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasida faoliyat olib borayotgan mashhur zamondoshimiz Muhammad Yunus Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining juda ko‘plab yirik mamlakatlaridagi innovatorlarni mikrokreditlar bilan ta’minlash g‘oyasiga boshchilik qilgan Gramin Bankining asoschisidir [2]. U “mikrokredit otasi” sifatida nom qozongan va global tashkilotlardagi millionlab insonlarga kichik miqdordagi qarzlarni olish imkoniyatini beruvchi mikromoliyalashtirish revolyutsiyasini o‘rnatgan. Ijtimoiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadbirkorlik Dasturiga bergan takliflari va qo‘shgan hissasi uchun Muhammad Yunus 2006-yilda Nobel Mukofoti bilan taqdirlangan [3].

Mamlakatimizda aholining zaif qatlamini ijtimoiy himoyalash masalasi doim davlatimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham bu dolzarb masalaga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ammo bugungi davr ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal etishda yangicha yondashuvlarni, xalqaro tajribalarni qo‘llagan holda nodavlat ijtimoiy himoya siyosatini rivojlantirishni ya’ni ijtimoiy tadbirkorlikni joriy etishni taqozo etmoqda[4].

O‘zbekistonda ham ijtimoiy tadbirkorlik so‘nggi yillarda alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862 sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka keng ko‘lamda jalb qilish ishsizlik muammosini hal qilishning va aholi turmush farovonligini oshirishning muhim omili ekanligi qayd etilgan[5]. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi mavjud sotsiomadaniy muhit bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanadi. Jamiyat a’zolarining qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyat darajasi, fuqarolik faolligi va hamkorlik madaniyati ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarining muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlikdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad bu jamiyatning zaif qatlamini ish bilan ta’minlash, ularning moliyaviy daromad topishiga ko‘maklashishdan iborat[6].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishida sotsiomadaniy muhitning ta’sirini sotsiologik tadqiqot natijalari asosida aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

• respondentlarning ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasiga bo‘lgan munosabatini aniqlash;

• aholining ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga tayyorlik darajasini baholash;

• ijtimoiy tadbirkorlikning kelajak istiqbollari bo‘yicha jamoatchilik fikrini aniqlash;

• olingan natijalar asosida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat hayotidagi mavjud holati va uning rivojlanish jarayoni belgilandi.

**Tadqiqot predmeti** esa ijtimoiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi sotsiomadaniy omillar, shuningdek aholining ijtimoiy tadbirkorlikka bo‘lgan munosabatlari va ijtimoiy faollik darajasini o‘z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish hamda ta’lim va ijtimoiy sohada amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik sohasida quyidagi mualliflar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan: U.Gofurov, Sh.Shodmonov, A.Kulmatov, U.Radjabov va ijtimoiy tadbirkorlikning qonunchilik asoslari sohasida A.Radjabov, S.Ahrorova, A.Qalandarov kabi mutaxassislar tadqiqot olib borgan. MDH mamlakatlarida so‘nggi paytlarda ilmiy jamoatchilik tomonidan ijtimoiy tadbirkorlikka, xususan, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish tarixi, amaliy jihatlari va uni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. Quyidagi oilimlar ishlari alohida e’tiborga loyiqdir: A.Moskovskaya, M.Batalina, L.Taradina, S.Sagarov, Y.Beliy. Xorijiy olimlardan R.Kantilon, A.Smit, Y.Shumpeter, P.Druker tadbirkorlikni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy himoya mavzularida yurtimiz olimlari: E.Zaitov, X.Xusanova, D.Fayziyeva, B. Eshonqulov, N.Ahmedov, S.Umarov,U.Yo‘dosheva kabi mutaxassislar ham o‘z izlanishlarini olib borishgan.

**METODOLOGIYA**


Tadqiqot dizayni kesimiy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tadbirkorlik va sotsiomadaniy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilishga yo‘naltirildi. Tadqiqotda miqdoriy sotsiologik yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi.

Ma’lumotlar maxsus ishlab chiqilgan standartlashtirilgan so‘rovnoma orqali yig‘ildi. So‘rovnoma savollari ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasini idrok etish, jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar, fuqarolik faolligi, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat darajasini aniqlashga qaratildi. Savollar mazmunan yopiq va yarim yopiq shaklda tuzildi, bu esa respondentlarning qarashlarini tizimli tahlil qilish imkonini berdi.

Empirik ma’lumotlar O‘zbekistonning turli hududlarida istiqomat qiluvchi 17-50 yoshdagi respondentlar orasida yig‘ildi. Tanlanma jamiyatning ijtimoiy-demografik xilma-xilligini aks ettirish maqsadida shakllantirildi. Olingan natijalar foiz ko‘rsatkichlari asosida umumlashtirilib, tahlil jarayonida taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotda ilmiy xolislik, ixtiyoriy ishtirok va axborot maxfiyligi tamoyillariga qat’iy amal qilindi, bu esa olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026




**(1-rasm). O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishida sotsiomadaniy muhitning o‘rni mavzusida o‘tqazilgan sotsiologik tadqiqot natijasi (Tadqiqot O‘zMU magistranti Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi tomonidan o‘tqazilgan)**

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat rivoji va fuqarolik faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning samarali rivojlanishi esa sotsiomadaniy muhit va jamiyat qadriyatlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot respondentlarning qarashlari va tajribalarini o‘rganishga qaratildi.





**(2-rasm). “Ijtimoiy tadbirkor” deganda nimani tushunasiz?**

“Ijtimoiy tadbirkor kim”? qabilidagi savolga , respondentlarning 26% ijtimoiy tadbirkorni “foyda bilan birga odamlar uchun foydali xizmat yaratadigan inson” deb tushunadi, bu tushuncha eng ko‘p tanlangan javob bo‘ldi. Shuningdek, 20% respondentlar ijtimoiy guruhlarga (yoshlar, nogironlar, kam ta’minlanganlar) ko‘mak beradigan tadbirkor sifatida baholaydi, 16% esa “jamoaga foydali mahsulot yoki xizmat taklif qiladigan tadbirkor” deb javob berdi. Jamiyatdagi


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muammolarni biznes orqali hal qiladigan tadbirkor va jamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadigan biznes egasi sifatida tanlovlar mos ravishda 15% va 13% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 10% respondentlar bu tushuncha haqida aniq ma’lumotga ega emasligini bildirgan.




**(3-rasm). Hududingizda ijtimoiy tadbirkorlar bor deb o‘ylaysizmi?**

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning eng ko‘pi 39% hududda ijtimoiy tadbirkorlarni shaxsan ko‘rgan. Shu bilan birga, 26% respondentlar ularning mavjudligini faqat eshitgan, 22% juda kamligini, va 13% ularning mavjud emasligini bildirgan.





**(4-rasm). Fikringizcha ijtimoiy tadbirkorlar qaysi sohada ko‘proq foyda berishi mumkin?**

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning eng ko‘pi (32%) ijtimoiy tadbirkorlar ta’lim va yoshlar bilan ishlash sohasida eng katta foyda keltirishi mumkin, 28% esa nogironlar va kam ta’minlanganlarga yordam berishni ustuvor deb hisoblaydi. Shu bilan birga, ekologiya va tozalik masalalarini 20% respondentlar muhim deb topgan, sog‘liqni saqlash sohasini esa 15% respondentlar


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

afzal ko‘rgan. Qolgan 5% boshqa sohalarda, jumladan madaniyat, sport yoki ijtimoiy infratuzilma rivojiga hissa qo‘shish mumkinligini ta’kidlagan.




**(5-rasm). Ijtimoiy tadbirkorlarning bo‘lishi jamiyatda muhimmi?**

Ijtimoiy tadbirkorlarning bo‘lishi jamiyatda muhimmi? Mazkur savolda so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning aksariyati 36% + 44% = 80% ijtimoiy tadbirkorlarning jamiyatda mavjudligini juda muhim yoki muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, 15% respondentlar bu faoliyatni o‘rtacha darajada, 5% esa unchalik muhim emas deb baholagan.





**(6-rasm). Ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash kimning vazifasi?**

Keyingi o‘rindagi savolimizda natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlar ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda eng katta mas’uliyatni markaziy davlat tuzilmalariga (28%) yuklashadi. Shu bilan birga, 23% fuqarolik jamiyati va aholining o‘zini, 17% mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, va 22% esa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hamkorlikda qo‘llashni eng samarali yo‘l deb hisoblaydi. Xususiy sektor va investorlar (6%) hamda NNT va xalqaro tashkilotlar (4%) kamroq mas’uliyatga ega deb ko‘rilgan.




**(7-rasm). Ijtimoiy tadbirkorlikning kelajagi bo‘yicha fikringiz?**

Mazkur savolga respondentlarning katta qismi (27% + 31% = 58%) ijtimoiy tadbirkorlikning kelajagi faol yoki sezilarli rivojlanadi deb hisoblaydi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy muammolarni hal qilishga bo‘lgan qiziqishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga bo‘lgan umidlarini aks ettiradi.

Qolgan kichik foizlar - 2% barqaror holatda qoladi, 5% kelajagi noaniq va 7% kuchli tarmoqlar shakllanishi mumkin deb javob bergan.

Ushbu savoldan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning kelajagi umuman ijobiy baholanadi, biroq barqaror va keng qamrovli rivojlanish uchun:

1. Aholining ijtimoiy tadbirkorlik haqida xabardorligini oshirish;
2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va investitsiya mexanizmlarini kuchaytirish;
3. Yoshlar va jamoatchilikni faol jalb qilish;
4. Qonunchilikni to‘liq shakllantirish va tizimli strategiyalar ishlab chiqish zarur.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

So‘rovnomaning umumiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlar ijtimoiy tadbirkorni asosan jamiyat muammolarini hal qiladigan, foydali xizmat yaratadigan va jamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadigan shaxs sifatida qabul qiladi. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining O‘zbekistonda keng tushunilayotganini bildiradi.

Natijalar shuningdek, respondentlarning ko‘pchiligi hududlarida ijtimoiy tadbirkorlarning faoliyatini ko‘rgan yoki eshitganligini ko‘rsatadi, bu esa O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning mavjudligi va aholi tomonidan qabul qilinishini tasdiqlaydi.

Respondentlar ijtimoiy tadbirkorlikning ta’lim, yoshlar bilan ishlash, nogironlar va kam ta’minlanganlarga yordam ko‘rsatish sohalarida eng samarali ekanligini ta’kidlashgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek: “Yurtimizda tadbirkorlik sohasida yaratilayotgan qulay sharoitlardan foydalanib,yoshlarni o‘z mustaqil ishini ochishga da’vat qilish - bu ham dinimiz buyurgan yaxshi amallardan biri”[7].

Shu tarzda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning nafaqat amaliy, balki nazariy jihatlarini ham yoritadi, va ularning jamiyatdagi roli, istiqboli hamda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari haqida to‘liq tasavvur beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishida sotsiomadaniy muhitning rolini yoritdi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlar ijtimoiy tadbirkorlarni jamiyat muammolarini hal qiluvchi, foydali xizmatlar yaratadigan va jamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadigan shaxslar sifatida qabul qiladi.

Natijalar ijtimoiy tadbirkorlikning ta’lim, nogironlar va kam ta’minlanganlarga yordam, shuningdek ekologiya va sog‘liqni saqlash sohalarida eng samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlat, mahalliy organlar, fuqarolik jamiyati va hamkorlik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot shuningdek, moliyalashtirishning yetishmasligi, aholining xabardorligining pastligi va qonunchilikning to‘liq shakllanmaganligi kabi rivojlanish to‘siqlarini aniqladi. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun aholining xabardorligini oshirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yaratish va qonunchilikni mukammallashtirish tavsiya etiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda respondentlar davlat tuzilmalari, fuqarolik jamiyati va hamkorlik mexanizmlarining asosiy rolini e’tirof etishgan. Shu bilan birga, kelajakdagi rivojlanish yuzasidan respondentlarning aksariyati ijobiy fikrda: ijtimoiy tadbirkorlik faol yoki sezilarli rivojlanadi deb baholashgan. Biroq, natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, moliyalashtirish va investorlar yetishmasligi, aholining xabardorligining pastligi va qonunchilikning to‘liq shakllanmaganligi ijtimoiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardir. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

1. Aholining ijtimoiy tadbirkorlik haqida xabardorligini oshirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish va investorlarni jalb qilish;

3. Yoshlar va keng jamoatchilikni ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish;

4. Qonunchilikni to‘liq shakllantirish va ijtimoiy tadbirkorlikni tartibga soluvchi strategiyalar ishlab chiqish.

Natijada, tadqiqot O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar berib, mavzuga ilmiy hissa qo‘shadi va ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning istiqbollarini ochib beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The New Heros, What is Social Entrepreneurship, Oregon Public Broadcasting, 2005.
2. Martin, R. L., & Osberg, S. (2007). Social entrepreneurship: The case for definition. Stanford social innovation review, 5(2), 28-39.
3. Bangladesh News." Internet Rolls into Bangladesh Villages on a Bike. Web. 21 Apr. 2014. http://www.asafeworldforwomen.org/global-news/asia/bangladesh/3284-internet-info-ladies.html
4. Hamrayeva Vasila.” Yangi O‘zbekiston yoshlari” ijodiy va ilmiy to‘plam -“ Wordly knowledge” nashriyoti O‘zbekiston-2024.-205 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13 –oktyabrdagi PQ-4862-sonli qarori. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida//www.lex.uz
6. Hamrayeva V.M. Educatioal research in Universal Sciences (ERUS) Journal. ISSN 2181-3515 Volume 2, Special issue 7 august 2023. -83 b.
7. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent:“O‘zbekiston”, 2017. -494 b.